

# النحو المبسط

Oson nahv

(Birinchi kitob)



## 1–dars

**Nahv ilmining ta’ifi:** Nahv ilmi kalimalarni qo’shish hamda kalimaning oxirgi harfining e’robi ma’lum bo’ladigan ilmdir.

Bu ilmning foydasi: odam bu tilda gapirganda, yozganda yoki o’qiganda xatoliklardan saqlanishidir.

**Lafz:** inson og’zidan chiqqan gap yoki so’z.

Lafz ikki qisimdir: **mavzu va muhmal.**

**Mavzu** ma’noli lafz      قلم

**Muhmal** ma’nosiz lafz دیز (teskari Zayd)

Nahv ilmida muhmal lafzlar haqida emas, mavzu lafzlar haqida bahs yuritamiz (shuning uchun muhmal lafzlarga to’xtalib o’tirmaymiz).

1. **Mufrad** ma’lum bir ma’no anglatadigan yolg’iz lafz.

M:      قلم

Mufrad lafzni **kalima** ham deyiladi. Bundan buyog’iga mufrad lafzni kalima deb ketiladi.

Kalima uch qismdir: 1) ism 2) fe'l 3) harf

Ism boshqa bir kalimaga qo'shilmasdan ma'no anglatadi.  
Ismda uch zamondan birortasi topilmaydi.

M: كِتَابٌ

Uch zamon: moziy- o'tgan zamon, hol-hozirgi zamon,  
mustaqbal-kelasi zamon.

Fe'l kalimaga boshqa bir kalima qo'shilmasdan ma'no  
anglatadigan 3 zamondan birortasi topiladigan kalima.

M: يَكْتُبُ - كَتَبَ - أَكْتُبُ

Harf boshqa bir kalimaga qo'shilmasdan ma'no  
anglatmaydigan kalima, ya'ni mustaqil ma'no anglatmaydi.

M: مِنْ، عَلَى، فِي، لِ

Harfga ism yoki fe'l qo'shilib kelgandagina ma'no anglatadi.

M: في المدرسة (maktabda)

## 2-dars

### Ismning alomatlari

Ismning alomatlari quyidagilardir.

1. Ismning avvalida alif lomning kelishi. M: الرّجُلُ
2. Ismdan oldin
3. Ismda tanvin kelishi M: رَجُلٌ
4. Ismning muzof bo'lib kelishi M: قَلْمَنْ قَاسِمٌ

5. Ismning musnadun ilayh bo'lib kelishi M: الْكِتَابُ جَدِيدٌ  
Fe'lning alomatlari.

Fe'lning alomatlari quyidagilardir:

- 1) Fe'l dan oldin قَدْ، س، سَوْفَ kelishi.

M: قَدْ ضَرَبَ، سَأَضْرِبَ، سَوْفَ أَضْرِبَ

- 2) Fe'l ni jazm qiladigan harfning kelishi

M: مَ بَضْرِبٍ

- 3) Fe'l bilan birga zamiyr marfu'muttasilning kelishi. M:

كَتَبُوا

## Harfning alomatlari.

Harfning alomatlari: unda ism va fe'lning alomatlari bo'lmasligidir.

Ism qismi: 1) jomid 2) masdar 3) mushtaq

1. Jomid na boshqa bir kalimadan yasalmagan va na boshqa kalima undan yasalgan. M: رَخْلُ، فَرَسٌ

2. Masdar boshqa bir kalimadan yasalmagan balki boshqa kalimalar undan yasalga ism. M: نَصْرٌ، ضَرْبٌ

3. Mushtoq masdardan yasalgan ism. Ular 5 ta

1. Ismi foil M: عَالِمٌ

2. Ismi maf'ul M: مَعْلُومٌ

3. Ismi olat M: مِفْتَاحٌ
4. Ismi zarf M: مَسْجِدٌ
5. Ismi tafzil M: أَكْبَرٌ

### 3-dars

**Murakkab** ikki yoki undan ortiq kalimalardan qo'shib yasalgan lafz.

Murakkab 2 qismidir:

1) murakkab mufiyd 2) murakkab g'oyri mufiyd

1. **Murakkab** mufiyd eshituvchi biror voqeaning xabari yoki biror voqeaning xabari yoki biror narsalining talabi ma'lum.

M: لا تَضْرِبْ حَسَنًا، حَسَنٌ حَاضِرٌ bo'ladigan lafz.

Murakkab mufiydni **jumla yoki kalom** ham deyiladi. O'zbek tilida **gap** deyiladi.

2. **Murakkab g'oyri mufiyd** eshituvchiga biror voqeaning xabari ham yoki biror narsaning talabi ham ma'lum bo'lmaydigan lafz.

M: قَلْمُ سَعِيدٍ

**Jumla** ikki qismidir 1) **xabariy jumla** 2) **inshoiy jumla**

1. **Xabariy jumla** gapiruvchini rost yoki yolg'onga chiqara olishi mumkin bo'lgan jumla.

M: زَيْدُ قَائِمٌ، زَيْدٌ قَامٌ

Xabariy jumla **2 qismdir:** a) ismiy jumla b) fe’liy jumla

a) **Ismiy jumla** birinchi juzi ism bo’lib va ikkinchi juzi ism yoki fe’l bo’ladigan jumla.

M: زَيْدٌ قَائِمٌ، زَيْدٌ قَامٌ

b) **Fe’liy jumla** uning birinchi juzi fe’l bo’ladigan jumla.

M: قَامَ زَيْدٌ

2. Inshoiy jumla gapiruvchisini rost yoki yolg’onga olish mumkin bo’lmagan jumla.

**Murakkab g’oyri mufiyd** ko’p qismlari bor. Ulardan ikkitasiga to’xtalib o’tamiz.

**Murakkab izofiy.** Murakkab izofiyning birinchi qismi **muzof** va ikkinchi qismi **muzofun ilayh** deyiladi.

M: قَاسِمٌ-كِتَابٌ-qosimning kitobi. Bu jumlada **-قَاسِمٌ** aniqlovchi, **-كِتَابٌ** aniqlanmishdir.

## 5-dars

Ism jinsga ko’ra 2 qisimga bo’linadi. 1) **muzakkar** 2) **muannas**.

1. **Muzakkar** unda tanisning biror bir alomati topilmaydigan ism. M: رَجُلٌ، فَرْسٌ، كِتَابٌ

2. **Muannas** unda tanisning biror bir alomati topiladigan ism.

M: بَيْضَاءُ، كُبْرَى، طَلْحَةُ

Tanisning alomati 3 tadir.

1. طَلْحَةُ، قَلْسُوَةُ (ة)
2. صُغْرَى، كُبْرَى
3. Alif mamsuda حَمْرَاءُ، بَيْضَاءُ

Tanis alomatlari topilishiga ko'ra muannas ikki qismga bo'linadi.

- 1) Qiyosiy muannas
- 2) Samo'iy muannas

**Qiyosiy muannas** tanisning alomati lafzda mavjud bo'lgan muannas, ya'ni yozuvda yozilgan bo'ladi. عَائِشَةُ

**Samo'iy muannas** tanis alomati lafzda mavjud bo'lмаган muannas, zabon ahli uni muannas deb hisoblashadi.

Misol: أَرْضٌ، شَمْسٌ

Samo'iy muannas quyidagilardir:

1. Muannasning nomi bo'lgan barcha ismlar. M: مَرْيَمُ
2. Ayollar uchun xos bo'lgan barcha ismlar. M: أُمُّ، أُخْتٌ
3. Biror shahar yoki qabilaning nomi bo'lgan barcha ismlar. M: شَامٌ، مِصْرٌ، فُرْيَشٌ
4. Inson juft a'zolari nomi bo'lgan barcha ismlar. M: يَدٌ، عَيْنٌ

Lekin ularning ba'zilar muannas hisoblanmaydi. Ular quyidagilar: صُدْغ، مِرْفَقٌ، حَاجِبٌ، حَدُّ

## 6-dars

Muayyan yoki muayyan bo'lmaslik e'tiboridan ismlar 2 qismdir:

1. Ma'rifa .
2. Nakra .

Ma'rifa muayyan narsani anglatuvchi ismdir. Ma'rifa 7 qismdir:

1. Zamirlar . M: هُوَ، أَنْتَ، أَنَا
2. Alamlar (nomlar). M: زَيْدٌ، هِنْدٌ
3. Ishora ismlari. M: هَذَا، ذَلِكَ
4. Mavsula ismlari. M: اللَّذِي، الَّتِي
5. Muarraf bi-alif-lom(alif -lom bilan ma'rifa qilingan)ismlar.

M: الْمُحْلَّ

6. Yuqorida keltirilgan beshtadan birortasiga muzof bo'lgan ismlar. Misollar:

- a) كِتَابٌ
- b) قَلْمُونَ سَعِيدٍ
- c) كِتَابٌ هَذَا

d)

**كُرَاسَةُ الَّتِي****عِنْدَكَ**

e)

**قَمِيصُ الرَّجُلِ**

7. Muarraf bin-nido (nido bilan ma'rifa bo'lgan) ismlar.

M: **يَا رَجُلٌ**

Nakra muayyan narsani anglatmaydigan ismdir.

M: **فَرَسٌ**

Ma'rifaning 7ta qismidan boshqa ismlar nakra hisoblanadi.

## 7-dars

Oxirgi harfning o'zrarishi yoki o'zgarmasligiga qarab kalimalar 2 qismdir:

1. Mu'rob.

2. Mabniy.

Mu'rob omilning o'zgarishi bilan oxirgi harfining erobi o'zgaruvchi kalimadir.

Omil mu'rob oxirining o'zgarishiga sabab bo'lgan narsadir.

Erob mu'robning oxigi harfidagi harakat yoki harfdir.

Erobning o'rni kalimaning oxirgi harfida bo'ladi.

M: **جَاءَ زَيْنُ، رَأَيْتُ زَيْنًا، مَرَرْتُ بِزَيْنٍ** bu misollarda **زَيْنٌ** mu'robdir,

بِ رَأْيْتُ، هَذَا بُلَارْ إِسَامِيلْدَارْ بِهِ يُسْتِدَاجِي رَافْ، نَاسْ، جَارْ إِرْوَبْدَارْ.

دَلْ كَالِمَاسِينِيْنِ “دَلْ” دَلْ حَارْفِيْ بُولْسَا إِرْوَبْ أُرْنِيدِرْ.

Исмнинг ероbi 3 qismdir:

1. Raf.
2. Nasb.
3. Jar.

Устидар raf bo’lgan ismni marfu’ ism deyiladi.

Устидар nasb bo’lgan ismni masub ism deyiladi.

Tagida jar bo’lgan ismni majrur ism deyiladi.

Мабниятар har doim bir holatda turadigan kalimadir. Omilning o’zgarishi bilan unda hech qanday o’zgarish bo’lmaydi.

هَذَا مَبْنِيْدَارْ بِهِ يُسْتِدَاجِي مَبْنِيْدَارْ: مَبْنِيْدَارْ بِهِ يُسْتِدَاجِي

Mu’rob o’zgaruvchi bor-bor,

Mabniy o’zgarmas barqaror.

## 8-dars

Mabniylar 8 qismdir:

1. Muzmarot (zamirlar).
2. Ishora ismlari.

3. Mavsula ismlari

4. Fe'l ismlar.

5. Ovoz ismlar.

6. Zarf ismlar.

7. Kinoya ismlar.

8. Binoiy murakkab.

Zamir g'oib, hozir va mutakallimni anglatish uchun vaz' qilingan ismdir.

Zamirlar 5 qismdir:

1. Marfu' muttasil zamir – foil bo'lib fe'lga qo'shilgan zamir.

M: ضَرَبَ (foili ھُو yashirindir).

Marfu' muttasil zamirlarni fe'ldan ajratib bo'lmaydi, ular fe'lga yopishgan bo'ladi.

2. Marfu' manfasil zamir foil yoki mubtado bo'lib fe'ldan ajralgan zamir. M: أَنَا طَالِبٌ ، ضَرَبْتُ أَنَا

M: ھُو، ھُم، ھِي، ھُم، ھُن، أَنَّتِ، أَنْتَمَا، أَنْتُمْ، أَنْتِ، أَنْتَمَا، أَنْتُمْ، أَنَا، تَحْتَ

3. Mansub muttasil zamir: maf'ulun bihi bo'lib fe'lga qo'shilgan zamir. M: ضَرَبَهُ

4. Mansu munfasil maf'ulun bihi yoki boshqa biror bir mansub bo'lib fe'ldan ajragan zamir. M: إِيَاهُ

5. Majrur muttasil zamir harfi jardan keyin kelib majrur bo'lgan yoki biror ismdan keyin kelib muzofun ilayh bo'lgan zamir. M: harfdan keyin kelaniga **لَهُ، لَكُمْ**  
M: ismdan keyin kelganiga **كِتَابُهُ، كِتَابُكُمْ**

## 9–dars

Ismi ishora biror kalimaga ishora qiluvchi ism. Ular ikki qismdir:

1) yaqinga ishora qiluvchi;

2) uzoqqa ishora qiluvchi ;

Yaqinga ishora qiluvchi ismlar quyidagilardir

**هَذَا** muzakkar birlik uchun

**هَذَانِ** muzakkar ikkilik uchun

**هَذِهِ** muannas birlik uchun

**هَاتَانِ** muannas ikkilik uchun

**هُؤُلَاءِ** muzakkar va muannas ko'plik uchun

Uzoqqa ishora qiluvchi ismlar quyidagilardir.

**ذَلِكَ** muzakkar birlik uchun

مۇزاكىرىڭ ئەنلىك muzakkar ikkilik uchun

مۇانнаسىنىڭ ئەنلىك muannas birlik uchun

مۇانнаسىنىڭ ئەنلىك muannas ikkilik uchun

مۇزاكىرىڭ و مۇانناسىنىڭ ئەنلىك muzakkar va muannas ko'plik uchun

Ismi ishora. Ishora .....

Mushorun ilayh deyiladi.

Ismi ishora hamda mushorun ilayhning e'robi bir xol bo'ladi.

Ismi ishora mabniy va uning ustidagi e'robi ko'rinxaydi.

M: هَذَا الْقَلْمُ نَفِيسٌ

## 10-dars

Ismi mavsul o'zining silasiga qo'shilmasdan turib, jumlaning biror juzi bo'la olmaydigan ism.

M: جَاءَ اللَّهُ بِنِي ضَرِيكَ

Bu misolda ism mavsulidir. ضَرِيكَ uning silasidir. Sila o'zining mavsuli bilan qo'shib fe'lining foili bo'ladi. Mavsul qo'shilgan deganidir. Demak, ism mavsul, o'zining silasi bilan qo'shib, jumlaning juzi bo'lar ekan. U jumlaning foili yoki maf'uli yoki boshqa bir juzi bo'ladi.

Ism mavsullar quyidagilardir:

الَّذِي muzakkar birlik uchun

الَّذَانِ، الَّذِينِ muzakkar ikkilik uchun

الَّذِينَ muzakkar ko'plik uchun

الَّتِي muannas birlik uchun

الَّلَّثَانِ، الَّلَّتَيْنِ muannas ikkilik uchun

الَّاِتِي، الَّلَّوَاتِي muannas ko'plik uchun

ما nima: narsa uchun, من kim? Kishi uchun, أي أهي nima: narsa uchun (muzakkar) أهي أهي nima: narsa uchun (muannas)

## 11-dars

### Mu'rob ismlar

Mu'rob ism 2 qismdir: 1) munsarif 2) g'oyri munsarf.

Munsarif ism: g'oyri munsor bo'lish sababi topilmagan ism.

Munsorif uchta kelishikli ism deganidir ya'ni tuslanuvchi kalimadir. M: بَعْلٌ

Munsarifda uchala harakat ham kela oladi, tanvin ham kela oladi.

G’oyri munsorif ism uchta sabablaridan 2 ta sababi topilgan yoki 2 ta sababning o’rniga tura oladigan 1 ta sabab topiladigan ism.

G’oyri munsorifning ustida tanvin kelmaydi hamda kasra kelmaydi. Kasraning o’rnida fatha keladi.

9 ta sabablar quyidagilar:

1. Adl –o’zining asliy siyg’asidan biror qoidaga muvofiq bo’lmagan holda chiqib boshqa siyg’aga o’tgan ism.

M: عمر dan عمر chiqqandir. عمر adl hisoblanadi.

2. Vasf yasalishida ma’nosi sifat uchun bo’lgan ism.

M: أمّر (qora) ، أسود - (qizil)

3. Tanis – muannas bo’lgan ism.

M: طلاق، زينب، حبل

4. Ma’rifa –biror narsaning nomi bo’lgan ism. Ya’ni atoqli ot.

M: زينب

5. U’jma – arab tilida bo’lmagan ism. Ya’ni ajnabiy ism.

M: إبراهيم

6. Jam' muntahal jumu' vaznida bo'lgan ism.

Muntahal jumu' vazni ikkitadir:

1) مَسَاجِدُ M: مَسَاجِدُ (Masağid)

2) مَقَاتِلُ M: مَقَاتِلُ (Maqatil)

7. Tarkiyb izofasiz hamda isnodasiz qo'shilgan ikkita kalima

M: شَاهَارْ (shahar nomi)

8. Vazni fe'l – fe'l vaznida bo'lgan ism .

M: أَحْمَدُ Ahmad muzorining vohid mutakallimining vazni ham  
أَحْمَدُ vaznida bo'ladi.

9. Alif nun zaidaton biror ismnning oxirida zoid bo'lgan alif  
hamda zoid bo'gan nun.

M: عُثْمَانُ، نُعْمَانُ

## Qoidalar

1. Taniys bil alif va jam' muntahal jumu' 2 ta sababning  
o'rnida kela oladigan 1 ta sababdir.

2. G'oyri munsorif alif lom bilan birga kelsa yoki g'oyri  
munsorif muzof bo'lsa jar holatida kasra bilan keladi.

M: صَلَيْتُ فِي مَسَاجِدِ الْبَلَدِ، ذَهَبْتُ إِلَى الْمَقَابِرِ

## 12-dars

### Marfuot

Marfuot e'robi raf bo'lgan ismlar. Marfuot 8 tadir.: 1) Foil 2) Noibi foil 3) mubtado 4) xabar 5) "inna" va uning birodarlarining xabari 6) Noqis fe'llarning ismi 7) "laysa" ga o'xshash va "laa" ning ismi ( لَا va لَعْلَى 8) "laa" nafiy jinsining xabari. (لَا)

Foil fe'lning nisbati uning taraiga qaratilgan ism. Fe'l o'sha ismning vositasida vujudga kelgan bo'ladi. M: قَامَ زَيْدٌ (Zayd turdi). Bu misolda زَيْدٌ foildir. Chunki, uning tarafiga (قَامَ) turish nisbat qilingan hamda turish o'sha Zaydning vositasida vujudga kelgan.

### Qoidalar

1. Foil ba'zida zohir ism bo'ladi. M: قَامَ زَيْدٌ

Ba'zida esa zamir bo'ladi. M: أَكْلَثُ

2. Foil ba'zida boriz zamir bo'ladi. M: أَكْلَثُ

Ba'zida esa mustatir zamir bo'ladi. M: ضَرَبَهُ

misolida, foil هُو zamiridir va هُو zamiriy yashirindir.

Boriz- zohir degani, mustatir- yashirin deganidir.

3. Agar foil zohir ism bo'lsa, fe'l har doim mufrad siyg'asida bo'ladi.

Misollar: ضَرَبَ الرِّجْلَ، ضَرَبَ الرِّجْلَانِ، ضَرَبَ الرِّجَالَ

1. Agar foil zamir bo'lsa, fe'l foilga mutobiq bo'ladi, ya'ni agar foil birlikda bo'lsa, fe'l ham birlikda bo'ladi. Agar foil ikkilikda bo'lsa, fe'l ham ikkilikda bo'ladi. Agar foil ko'plikda bo'lsa, fe'l ham ko'plikda bo'ladi.

**الرَّجُلُ ضَرِبَ، الرَّجُلَانِ ضَرَبَا، الرَّجَالُ ضَرَبُوا**

Misollar: **ضَرَبَوا** misolida, **ضَرَبُوا** siniq ko'plik bo'lgani sababli **ضَرَبُوا** fe'lini muannas birlikda **ضَرِبُثُوا** deb aytsa ham bo'ladi.

## 13-dars

### Noibu foil, mubtado va xabar

1. Noibu foil maf'ulun bihi majhul fe'lning nisbati uning tarafiga . uning asl foili ma'lum bo'lmaydi.

M: أَكْلَ الْحَبْزُ (non yeyildi)

Bu misolda foil zikr qilinmagan ya'ni non yegan shaxs aytiladi o'tilmagan, shuning uchun bu fe'l majhuldir hamda **الْحَبْزُ** noibu foildir, aslida **الْحَبْزُ** maf'ulun bihi edi, lekin fe'lning foili zikr qilinmagani uchun va fe'l majhul bo'lgani uchun **الْحَبْزُ** noibu foil bo'ldi. Noibu foilni **maf'ulun maalam yusamma fa'iluhu** deb ham aytiladi ya'ni foil zikr qilinmagan fe'lning maf'ulidir.

## Qoida

Noibu foil fe'lning birlik, ikkilik, ko'plik siyg'alarida kelishdagi hukmi, foil fe'lning hukmi kabitdir.

Misollar: ضُرِبَ الرَّجُلُ، ضُرِبَ الرَّجُلَانِ، ضُرِبَ الرِّجَالُ

Misollar: الرَّجُلُ ضَرَبَ، الرَّجُلَانِ ضَرَبَا، الرِّجَالُ ضَرَبُوا yoki ضَرَبَتْ

1. Mubtado ismiy jumlaning biringchi juzidir hamda ismiy jumla u bilan boshlanadi va u haqida xabar beriladi.

M: نَسِيمٌ نَائِمٌ (Nasim uxlovchidir). Bu misolda نَسِيمٌ mubtadodir, chunki ismiy jumla shu bilan boshlanyapti va xabar ham u haqida berilyapti.

Mubtadoni **musadun ilayh** ham deyiladi.

2. Xabar ismiy jumlaning ikkinchi juzidir hamda u orqali mubtado haqida xabar beriladi.

M: نَسِيمٌ نَائِمٌ (Nasim uxlovchidir).

Bu misolda نَائِمٌ xabardir, chunki Nasim haqida نَائِمٌ orqali xabar berilyapti hamda نَائِمٌ ismiy jumlaning ikkinchi juzi bo'lyapti.

## Qoidalar

1. Mubtado hamda xabarni omili ma'naviy bo'ladi. O'sha ma'naviy omil mubtado hamda xabarni marfu' qiladi.
2. Mubtado aksar holatda ma'rifa bo'ladi, xabar aksar holatda nakra bo'ladi. M: نَسِيمٌ نَّافِعٌ نَّسِيمٌ

Bu misolda نَسِيمٌ ma'rifadir نَافِعٌ esa nakradir.

## 14-dars

**“inna” va uning birodarlarining xabari.**

“inna” va uning birodarlari quyidagilardir:

إِنْ، أَنْ، كَانَ، لَكِنْ، لَيْتَ، لَعَلَّ

Bu harflar ismiy jumlalar ustiga keladi va mubtadoni o'zining ismi, xabarini marfu' qiladi.

Misollar: إِنَّ اللَّهَ عَلِيمٌ

Ushbu misollarning barchasi avvalda ismiy jumla bo'lgan, keyin ularga mushabbaha bil fe'l bo'lgan harflar kirgan va mubtadoni o'zining ismi qilib mansub qilgan, hamda habarni o'zining habari qilib marfu' qilgan.

1. “Laysa” ga o'xhash “ma” va “la” ning ismi (ما ، لا)

“laysa” ga o'xhash “ma” va “la” ning ismni marfu' qiladi hamda xabarni mansub qiladi.

Misollar: مَا هَذَا بَشَرًا

Bu misollarda “ma va la” ning ma’nosisi “laysa” ma’nosidadir, ya’ni “emas” degan ma’nodadir.

2. “la nafiy jinsning xabari” ( لا نافیٰ جنس‌نین خاباری ) “la nafiy” jins nakraning ustiga kelib butun bir jinsni nafiy qiladi. Nafiy jinsning “la” si ismni mansub, xabarni marfu’ qiladi. M: لا رجُل قَائِمٌ  
(biror bir turuvchi kishi yo’q)

## 15-dars

### Noqis fe’llar

Noqis fe’llar ismiy jumla ustiga kelib, mubtadoni o’zining ismi qiladi, xabarning o’zining xabari qiladi. Ismni marfu’ qiladi, xabarni mansub qiladi. Noqis fe’llar quyidagilardir :

كَانَ -edi, صَارَ -aylandi, أَصْبَحَ -ertalabda bo’ldi, أَمْسَى -kechqurunda bo’ldi, أَضْحَى -choshgohda bo’ldi, ظَلَّ -kun bo’yi bo’ldi, بَاتَ -tun bo’yi bo’ldi.

أَصْبَحَ، أَمْسَى، أَضْحَى، ظَلَّ، بَاتَ bular صَارَ ma’nosida ham kelishi mumkin.

مَا فَتَى - to’xtamadi, hamisha qilaveradi, esidan chiqarmadi,

-مَا بَرَحَ -لَيْسَ emas, -مَا دَأَمَ modomiyki, -مَا انْفَأَكَ judo bo'lmadi, -مَا زَالَ zoil bo'lmadi, chekinmadi, o'laveradi,

Misollar: **كَانَ اللَّهُ عَلِيهِمَا**—(Alloh juda yaxshi biluvchidir)

**صَارَ الدَّقِيقُ خُبْزًا** (Un nonga aylandi)

**أَصْبَحَ زَيْدٌ عَنِيًّا** (Zayd ertalabda boyga aylandi)

**لَيْسَ بِكُثْرَ قَائِمًا** (Bakr tik turuvchi emasdir)

## Qoida

Yuqorida kelgan noqis fe'llardan boshqa mushtoq fe'llar ham ya'ni muzore amr fe'le ham, noqis fe'llar kabi hukmi bir xildir.

**كَانَ** ning amali qanday bo'lsa **يُكُونُ** va **كُنْ** ning amali ham shundaydir.

## 16-dars

### Mansubot

Mansubot e'robi nasb bo'lgan ismlar. Mansubot 12 tadir.

1. Mafu'lun mutloq.
2. Mafu'lun bihi.
3. Mafu'lun lahu.
4. Mafu'lun ma'ahu.
5. Mafu'lun fiyhi.
6. Hol.
7. Tamiyz.
8. "inna" va uning izdoshlarining ismi.
9. "laysa" ga o'xshash "ma va la" ning xabari (ما ، لایسا).

10. “la” nafiy jinsning ismi ( ل ). 11. Noqis fe’llarning habari. 12. Mustasno.

1. **Mafu’lun mutloq** masdar fe’ldan keyin kelib fe’lning ma’nosida bo’ladigan. M: ضَرِبَتْ ضَرِبًا

Bu misolda ضَرِبَ mafu’lun mutlaqdir.

## Qoida

Mafu’lun mutlaq 3 ta maqsad uchun keladi.

Birinchi maqsad: maf’ulun mutlaq fe’lni takidlash uchun keladi.

M: ضَرِبَتْ ضَرِبًا (yaxshilab urdim)

Ikkinci maqsad: maf’ulun mutlaq ish-harakatni adadini, sonini bayon qilish uchun keladi. M: جَلَسْتُ جَلْسَةً الْعَالِمِ (Men Olim kabi o’tirdim).

Uchunchi maqsad: maf’ulun mutloq ish-harakatni adadini, sonini bayon qilish uchun keladi جَلَسْتُ جَلْسَةً، جَلَسْتُ جَلْسَةَ (men bir marta o’tirdim, men ikki marta o’tirdim)

1. **Maf’ulun bihi** ishni bajaruvchisining ishi uning ustida voqe’ bo’ladigan (sodir bo’lgan). M: أَكَلَ مُحَمَّدُ الْخُبْزَ

Ushbu misolda maf’ulun bihidir. Chunki uning ustida yeish voqe’ bo’lmoqda. Bizning o’zbek tilida maf’ulun bihi **to’ldiruvchiga** to’g’ri keladi.

## 17-dars

**Maf'ulun lahu, maf'ulun ma'aha, mafu'lun fihiy.**

**1. Maf'ulun lahu** ismki, ish-harakat uning sababidan qilingandir.

M: ضَرْبَتُهُ تَأْدِيَّا (Men uni odob berish uchun urdim).

Ushbu misolda تَأْدِيَّا maf'ulun lahudir. Chunki ish-harakat ya'ni urish, uni odob berish maqsadida yuzaga kelgan.

**2. Maf'ulun ma'aha** ism bilan ma'aning ma'nosida bo'lган vovdan keyin kelgan ism. M: حَاءَ قَاسِمٌ وَالْكِتَابَ (Qosim kitob bilan keldi).

Bu misolning tarkibi quyidagicha bo'ladi: حَاءَ fe'l, قَاسِمٌ foil, وَ bilan ma'aning ma'nosidagi harf, الْكِتَابَ maf'ulun ma'ahudir. Fe'l o'zining foili hamda maf'ulun ma'ahusi bilan qo'shilib turib, xabariy fe'liy jumla bo'ladi.

**3. Mafu'lun fihiy** ish-harakat bo'lган vaqtini yoki joyni anglatadi.

M: صُمْتُ شَهْرًا (Men biro y ro'za tutdim)

حَلَسْتُ خَلْفَكَ (Men seni orqangda o'tirdim)

Ushbu misollarda شَهْرًا va خَلْفَكَ mafu'lun fihiydir. Maf'ulun fihiyini **zarf** ha deb ataladi. Zarfning ikki qismi bor: 1) **zarfi zamon** 2) **zarfi makon**

**Zarfi zamon** vaqtini anglatuvchi ismdir.

Misollar: دَهْرٌ، حِينٌ، يَوْمٌ، لَيْلٌ، شَهْرٌ، سَنَةٌ

**Zarfi makon** o'rin-joyni anglatuvchi ismdir.

Misollar: خَلْفٌ، أَمَامٌ، ذَارٌ، مَسْجِدٌ

## 18- dars

Hol foil yoki maf'ulun bihi yoki ikkalasini holatini bayon qilish uchun kelgan ism. M: **جَاءَ سَلِيمٌ رَّاكِبًا، ضَرْبُتْ زَيْدًا مَشْدُودًا، لَقِيَتْ زَيْدًا رَّاكِبِينَ**

1.

**جَاءَ سَلِيمٌ رَّاكِبًا**

bu misolda **سَلِيمٌ** zulholidir, **رَّاكِبًا** holdir.

2.

**ضَرْبُتْ زَيْدًا**

**مَشْدُودًا** bu misolda **زَيْدًا** zulholidir, **مَشْدُودًا** holdir. Birinchi misoldagi hol foilning holidir. Ikkinci misoldagi hol maf'ulun bihining holidir.

3.

**لَقِيَتْ زَيْدًا رَّاكِبِينَ**

Ucunchi misolda **لَقِيَتْ** fe'lining **أَنَّ** foili hamda **زَيْدًا** maf'ulun bihining holidir, ya'ni ham foilning ham maf'ulun bihining holidir.

### Qoidalar

1. Holati bayon qilinayotgan foilni hamda maf'ulunbihini **zul hol** deyiladi.
2. **Zul hol** aksar holatda ma'rifa keladi, hol esa aksar holatda nakra keladi hamda aksar holatda mufrad keladi.
3. Agar **zul hol** nakra bo'lsa holni muqaddam qilishlik vojibdir.
4. Hol ba'zida ismiy jumla bo'ladi, ba'zida esa fe'liy jumla bo'ladi.

M: **(لَقِيَتْ حَمِيدًا وَهُوَ حَالِسٌ)** Men hamidni o'tirgan holatida uchratdim).

Ushbu misolda **وَهُوَ حَالِسٌ** holdir, **حَمِيدًا** zul holidir.

عَنْهُ يَعْنِي يَسْعَى Ushbu misolda **fe'l** ھُوَ mustatir zamir foil, **fe'l** o'zining foili bilan qo'shilib turib **يَعْنِي** ning holidir. **يَعْنِي** esa zul holidir.

## 19-dars

Tamiyz va mustasno

Tamiyz u biror narsadagi mavhumlik uzoq qilish uchun kelgan isim.

M: رَأَيْتُ أَحَدَ عَشَرَ كَوْكَبًا) Men 11ta yulduzni ko'rdim)

Ushbu gapda **كَوْكَبًا** kalimsi **أَحَدَ عَشَرَ** kalimasidagi mavhumlikni uzoq qildi.

**Mumayyaz** mavhumlik uzoq qilinayotgan kalmia.

Demak yuqoridagi misolda **كَوْكَبًا** **tamiz** bo'lsa, **أَحَدَ عَشَرَ** **mumayyaz** bo'ladi.

رأَيْتُ أَحَدَ عَشَرَ كَوْكَبًا buning tarkibi quyidagicha bo'ladi.

رأَيْتُ أَنَّا fe'l zamir mustatir foil, **أَحَدَ عَشَرَ** **mumayyaz**, **كَوْكَبًا** **tamiyz**. Mumayyaz tamiyz bilan qo'shilib maf'ulun bihi bo'ladi. Fe'l, foil, maf'ulun bihi qo'shilib jumla fe'liyya xabariyya bo'ladi.

## Qoida

Tamiy son-miqdordagi, vazn-o'lchovdagi, idishlar orqali o'lchovdagi hamda maydon o'lchovdagi mavhumlikni uzoq qilish uchun keladi.

Misollar:

**Mustasno** istisno harfi orqali yuqorida kelganning hukmidan chiqarilgan ism.

M: **جَاءَ بِالْقَوْمِ إِلَّا زَنْدًا**

Ushbu misolda ko'p sonli narsa **الْقَوْمُ** dir. Undan istesno harfi orqali **زَنْدًا** mustasnodir.

Aslida istisno masdar bo'lib, uning ma'nosi yuqorida kelgan hukumdan chiqarmoqdir.

**Mustasno minhu** lafziyki, undan biror narsa chiqarilgan lafz.

**Istisno harfi** hukumdan chiqaruvchi harf. Istisno harflari bir nechtadir. Ulardan ba'zilari quyidagilar: **إِلَّا، غَيْرُ، سَوْى**

Mustasno ikki xil bo'ladi. **1) muttasil 2) munqote'**

Mustasno muttasil: mustasno minhudan chiqarib olinmagan ism, ya'ni mustasno minhudan tashqarida bo'ladi.

M: **جَاءَ بِالْقَوْمِ إِلَّا حَمَارًا**

Ushbu misolda **حَمَارًا** (eshak) kalimasi **الْقَوْمُ** ning ichidan chiqarib olinmagandir ya'ni eshak qovmning ichiga kirmaydi.

## 20- dars

### Majrurot

**Majrurot** isimlar, ularning e’roblari jar bo’lgan ismlar. Majrurot 2 qismidir. 1. Muzofun ilayhi 2. Majrur biharfi jar

1. **Muzofun ilayhi** uning tarafiga biror bir narsa mansub qilingan ism. M: ﷺ (Muhammadning qalami). Ushbu misolda Muhammadning tarafiga qalam mansub qilingan. Shuning uchun u muzofun ilayhidir. **Muzof** mansub qilingan ism.

### Qoidalar

1. Arab tilida avvalo muzof keladi, keyin esa muzofun ilayhi keladi. O’zbek tilida buning aksidir.
2. Muzof kalimasida hech qachon alif lom va tanvin bo’lmaydi.
3. Muzofun ilayhi hamisha majrur bo’ladi.
4. Muzofning harakati omilining taqazosiga qarab o’zgaradi.
  
  
  
  
  
  
1. **Majrur biharfi jar** ustida jor harfi kelgan sababli kasra bo’lgan ism. Jor harflar 17 tadir.

Ular quyidagilar:

باء، تاء، گاف، لام، واء، مند، مذ، خلا، رب، حاشا، مِنْ، عَدَا، فِي، عَنْ، عَلَى، حَتَّى، إِلَى